

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING MAMLAKATIMIZ ISLOHOTLARIDAGI O'RNI

Qarajayeva Dilorom Namozovna

Surxodaryo yuridik texnikumi kata o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20826169>

Annotatsiya. Asosiy qonunining jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyati nihoyatda ulkan bo'lib, mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining mustahkam tayanchi va huquqiy kafolati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan, unda jamiyatda tinchlik va hamjihatlik barqarorligi uchun mustahkam zamin mavjuddir.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, normalar, davlat tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv organlari, adolatli jamiyat, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxs, xalq va inson manfaatlari, fuqarolik va siyosiy huquqlar, qonunchilik tizimi.

Asosiy qism. “O'zbekiston Konstitutsiyasini tom ma'noda xalq konstitutsiyasi” deya olamiz. Zero, har taraflama puxta va zamon talablariga javob beradigan mamlakatimiz Konstitutsiyasi umume'tirof etilgan hujjatlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi, Fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari to'g'risidagi paktlarda qayd etilgan eng muhim huquqiy normalar singdirilgan va jamoatchilik vakillari, fuqarolar tomonidan kelib tushgan takliflar inobatga olingan holda yaratildi.

Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

Konstitutsiyada O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi.

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgiladi. Bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi.

Binobarin, qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi.

Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamlardan biridir.

Konstitutsiyada O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi.¹

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgiladi. Bu hol davlat² organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi.

¹M.M. Abdullayeva “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” o'quv qo'llanma Toshkent-2023 yil

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11- 91- moddalari // <https://lex.uz/docs/-6445145>

Qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur.

Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi.

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari Bosh Qomusimiz himoyasida o'zaro hamjihatlik va totuvlikda yashab mehnat qilmoqda. Ularning o'z tili, milliy an'ana va urf-odatlarini davom ettirishlari, O'zbekiston fuqarosi sifatida emin-erkin yashashlari konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari" deb nomlangan X bobi muhim ahamiyatga egadir.

Chunki, inson huquq va erkinliklarining hayotdagi ro'yobi, uni ishonchli amalga oshirilishi murakkab jarayon hisoblanadi. Istiqlolning asl mohiyati-insonni va uning hayotini ulug'lashdir.

Bosh Qomusimizning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi, inson va uning hayoti, erkinligi sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston parlamentga mustaqillik tufayli erishdi. Parlamentning tashkil qilinishida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi", qoidasiga to'la amal qilishga va Oliy Majlisning faoliyatini konstitutsiyaviy asosda tartibga solishga alohida e'tibor berildi.

Konstitutsiyaning beshinchi bo'limidagi XVIII bob "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi" deb nomlanib, parlament faoliyatini tartibga soladi. Oliy Majlis – O'zbekiston Respublikasi Parlamenti bo'lib, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi. Shu bilan birga u oliy davlat vakillik organidir. Konstitutsiyaning 91-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", – deyilgan.

Qonun ustuvor bo'lgan jamiyatimizning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi milliy qonunchiligimizning shakllanishi ham konstitutsiyaviy tamoyillar asosida ro'yobga chiqdi.

Konstitutsiyamizning xalqchiligi va haqqoniyligini namoyon etib, mamlakatimiz taraqqiyotida muhim asos bo'lmoqda.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tom ma'noda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish va rivojlantirish, jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil liberallashtirish va modernizatsiya qilish hamda "kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalga tadbiiq etishda, mustahkam huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qonunimiz ko'p millatli O'zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklarini kafolatlovchi hujjat sifatida bizning yo'llarimizni charog'on etuvchi yulduzdir. Suveren va demokratik davlat qurish yo'lidan qat'iy borayotgan ³ O'zbekistonning har bir fuqarosi Konstitutsiyamiz bilan faxrlanadi. Chunki u baxtimiz va tengligimiz kafolatidir.

³ Sh.Bahronov Konstitutsiya fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevori maqola. Huquq va burch jurnali 12/2024 -yil

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/ 0241-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.
3. Saidov A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil va demokratik taraqqiyotning huquqiy asosi. – T.:O‘zbekiston. 2012. – 72 b.
4. Sh. Zulfiqorov. “Konstitutsiyaning asosiy kuchi uning to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlashidir!” // <https://darakchi.uz/uz/164822>
5. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2023-y. – 19 b.
6. Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т., Муҳамедов Ў.Ҳ. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. 752 б.
7. Kostetskiy V.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lug‘at ma’lumotnoma. T., 2013.
8. M.M. Abdullayeva “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2023 yil
9. Sh.Bahronov Konstitutsiya fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevori maqola.Huquq va burch jurnali 12/2024 -yil